

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O'ZBEK ADABIYOTIDA PAYG'AMBARLAR OBRAZINING YORITILISHI.

Abduhalimova Sitora Suhbatjon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

+998 99891 119-91-42 abduhalimovasitora23@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sayidolimov J

Annotatsiya: Mazkur maqolada payg'ambarlar, payg'ambarlar obrazining o'zbek mumtoz adabiyotdagi asarlarda yoritilishi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Payg'ambar, obraz, sabr, tavba, odob, ilm.

Аннотация: В данной статье представлены сведения об изображении Пророков и Пророков в произведениях классической литературы.

Ключевые слова: Пророк, изображение, терпение, покаяние, манеры, знания.

Abstract: This article provides information about the depiction of Prophets and Prophets in works of classical literature.

Key words: Prophets, image, patience, repentance, manners, knowledge.

"Avvalgi Payg'ambarlar o'z qavmlatigagina yuborilar edilar. Men esa hammaga barobar Payg'ambar qilib yuborilganman" degan habibimiz va shafatchimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamga batamon salavotu-salomlar bo'lsin.

Robbimiz biz musulmonlarga eng ulug' ne'mat-Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni Payg'ambar qilib yuborganidir. Nabiy alayhissalomga ummat bo'lishni Hatton payg'ambarlar orzu qilishgan. Ammo Alloh O'z fazli ila bizga Ana shunday ne'matni berdi. Alloh Taolo bunday marhamat qiladi:

" (Ey Muhammad) Biz Sizni (butun) olamlarga ayni rahmat qilib yuborganmiz" (Anbiyo surasi, 107-oyat).

Oyatdagi "Rahmat" juda keng ma'noni anglatadi. Ularni bilish uchun Muhammad sollallohu alayhi vasallam ahloq-odoblari, siyrat va shamoyillari, U zotning shariatlari xatto kufr va shirk ahliga ham zulmni ravo ko'rmasligi, mehr-oqibat, ezgulik kabi fazilatlar manbai ekanidan xabardor bo'lish zarur.

Sevikli Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam Payg'ambar bo'lishlaridan oldin ham o'z qavmlari orasida "Amin" ishonchli, omonatdor, rostgo'y nomini olganlar.

Quyidagi maqolamizda o'zbek mumtoz adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan asarlarda Payg'ambarlar obrazining yoritilishi haqida so'z boradi. Avvalo obraz nima ekanligi haqida fikr yuritishimiz lozim.

Obraz - badiiy asarlarda yaratilgan tip, xarakter. Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda, badiiy umumkashma xususiyatiga va hissing ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz deyiladi. Badiiy obraz - borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Badiiy adabiyotda payg'ambarlar obrazining yoritilishi haqida so'z olib borishdan oldin ular haqida kengroq tushunchaga ega bo'lish kerak.

Payg'ambar - (fors- xabar keltiruvchi) islom aqidasi ko'ra, Alloh bilan uning bandalari o'rtasidagi elchi; Allohning buyruq va ko'rsatmalarini vahiy orqali qabul etib, ularni o'z ummatiga to'la-to'kis yetkazuvchi vakil. Payg'ambar va Alloh o'rtasida elchilik qiluvchi farishta ham borki, uning nomi Jabroildir. Ba'zida Alloh taola Payg'ambarga bevosita vahiy yuborishi va bevosita gaplashishi ham mumkin. Qur'oni Karimda quyidagi payg'ambarlar nomi zikr etilgan: Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Lut, Ismoil, Ishoq, Ya'qub, Yusuf, Ayyub, Shuayb, Muso, Xorun, Ilyos, Yunus, Zakariyo Sulaymon, Zulkifl, Yahyo, Ilyo, Zul-Kifil, Alyasa, Dovud ana shu boshqa Payg'ambarlarning barchasini tasdiq etib, ularning barhaq Payg'ambar bo'lib o'tganliklariga ikkilanmay imon keltirish har bir musulmon zimmasidagi imon shartlaridandir. Payg'ambarlarning birinchisi - Odam (A.S.) oxirgisi - Habibimiz Muhammad (S.A.)dir. Ulardan keyin to qiyomat kunigacha boshqa Payg'ambar kelmaydi. Payg'ambarlar katta-kichik gunohkardan pokdirlar.

Nabiy - (arab - ko'pligi anbiyo, ilohiy xabar keltiruvchi) - payg'ambar, Allohning farmoyishini insonlarga yetkazib beruvchi vositachi shaxs. Nabiylarga ishonish islom dini aqidalaridan hisoblanadi. O'zlariga biror kitob va shariat berilmay bir rasulga (ya'ni Allohning elchisiga) ato etilgan kitob va shariatga amal qilmoqqa buyurilgan payg'ambarlar nabiylar deyiladi. Qur'oni Karimda birinchi payg'ambar Odamato haqida ko'p zikr qilingan. Payg'ambarimiz Muhammad (S.A.) eng oxirgisi bo'lib, "Hotam-an nabiyin", - "Payg'ambarlar muhri" deb ataladilar. Rivoyatlarga ko'ra Payg'ambarlar soni 124 ming biroq, Qur'onda yigirma beshtasining nomi zikr etilgan.

Odamato (A.S.) - Qur'onga ko'ra, Alloh tomonidan yaratilgan yes yuzidagi birinchi odam va inson zotining otasi. Alloh Odam (A.S.) ni loydan o'zining yerdagi o'rinbosari (xalifa) sifatida yaratib, unga o'z ruhidan jon ato etgan. Odam (A.S.) "Abul-Bashar" - (insoniyat otasi) deb ham ataladi. Islomda Odam (A.S.) birinchi payg'ambar hisoblanadi. Alloh Odam (A.S.) ga barcha narsalarning nomlarini o'rgatdi va bu bilan Odam (A.S.) ni farishtalardan yuqori qo'ydi (Baqara surasi, 32-33-oyatlar) va farishtalarga Odam (A.S.) ga bosh egib sajda qilishni buyurdi. Faqat Iblis sajda qilishdan bosh tortdi (Sod surasi, 73-78-oyatlar). Iblis takabburligi va sarkashligi tufayli Jannatdan quvildi. Odam (A.S.) jufti Momohavo bilan Jannatda yashab, ularga barcha ne'matlardan yeyishga ruhsat berildi, faqatgina bir daraxtning mevasidan yeyish ta'qiqlandi (A'rof surasi, 19-21-oyatlar) Iblis Odam (A.S.) bilan Momohavoni aldab ta'qiqlangan daraxt mevasini yediradi. Buning jazosi evaziga ular Jannatdan chiqarilib, ularning avlodlari yerda yashashga va mehnat qilishga mahkum etiladi.

Biz musulmonlar, Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning ummatlari Habibimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hayotlarini o'zbek mumtoz adabiyotida o'rganar ekanmiz, o'zimiz uchun hayotning barcha jabhalaridagi eng oliy darajadagi yuksak odob-axloqni ko'ramiz. Hayotlaridan o'zimiz uchun namuna olamiz. Alloh taola Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamni barcha musulmonlarga namuna qilib yuborgan.

"(Ey iymon keltirganlar!) Sizlar uchun Alloh va ohirat kunidan umidvor bo'lgan hamda Allohni ko'p yod qilgan kishilar uchun Allohning Payg'ambarida g'ozal namuna bordir" ("Ahzob" surasi,21-oyat).

Alloh taolo:

"Albatta,Siz buyuk xulq uzradirsiz!" ("Qalam" surasi,4-oyat) deb Rasululloh solallohu alayhi vasallamni go'zal xulq sohibi ekanliklarini madh etgan.

Albatta,insonlarning eng go'zal xulqlisi Payg'ambarimiz Muhammad solallohu alayhi vasallamdirlar.

Oisha onamiz roziyallohu anhodan Payg'ambarimiz Rasululloh solallohu alayhi vasallamning ahloqlari haqida so'rashganida:

Rasululloh solallohu alayhi vasallamning ahloqlari Qur'on edi", deb javob berganlar.

Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarining muqaddimasi Alloh hamdi bilan boshlanadi va Na't qismiga o'tib,Payg'ambarlar yod etiladi.Alisher Navoiy she'riyatida ham,nasriy asarlarida ham payg'ambarlar obraziga murojaat qilgan.Alisher Navoiyning umrining so'nggi poyonida yozilgan "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") asari bo'lib,1500-yilda yaratilgan.Bu asar an'anaga ko'ra Alloh hamdi bilan boshlanadi.Shu bilan birgalikda payg'ambarlar timsollariga ham duch kelamiz.Asarda Odam alayhissalom,Nuh alayhissalom,Ibrohim alayhissalom,Ya'qub alayhissalom,Yusuf alayhissalom,Yusuf alayhissalom,Xizr alayhissalom,Ayyub alayhissalom,Sulaymon alayhissalom,Iso Masih alayhissalom kabi payg'ambarlar nomi zikr etilgan.

Adib payg'ambarlarning nuri zuhur topganda,bu olamda asar ham bo'lmaganligini,payg'ambarlar tug'ilmasidan ularning nurlari mavjud bo'lganligini bayon etadi.Asarning ikkinchi qismi "Sabr zikrida" bobida Xizr,Ayyub,Muhammad (S.A.V) timsollari keltiriladi.Inson har doim sabr,shukr qilib yashashligi va har bir qilingan sabrning ortidan go'zal mukofotlar berilishini bayon etadi.

Barchamizga ma'lumki Payg'ambarimiz Muhammad solallohu alayhi vasallam cho'ponlik bilan shug'ullanishgan.Barcha nabiyalar oddiy insonlar bo'lib,oddiy tarzda hayot kechirishgan.Asarning yana bir bobi "Dehqonlar zikrida" faslida dehqonlarning mehnatkashligini ulug'lab,ularni ilk dehqonchilik bilan shug'ullangan,kun bo'yi mehnat qilib,dala va bog'da ishlagan Odam Ato bilan qiyoslaydi.Dehqon tabaqisiga mansub bo'lgan vakillarni Odam Atoning haqiqiy izdoshlati deya e'tirof etadi.Dehqonni butun xalqning otasidur deya ya'ni insofar otasi - Odam alayhissalomga qiyoslaydi.

Asarning "Rizo zikrida" bobida Ibrohim alayhissalom timsoli haqida so'z boradi.

"Atibbo zikrida" bemorlarga bemorlarga da'vo ulashuvchi,shirinso'z tabib Xizr alayhissalomga qiyoslanadi.

Bularga qo'shimcha ravishda,Alisher Navoiyning diniy arboblari,shayxlar hamda ruhoniylarga bo'lgan munosabati "Mahbub ul-qulub" da yaqqol o'z ifodasini topgan.Alisher Navoiy shayxulislomlar,qozi va faqihlar,tariqat shayxlari,qorilar va hofizi Qur'onlar,voila haqida fikr yuritir ekan,ularni diyonatli insonlar hamda ilmini vositai joh aylagan dindorlar toifasiga ajratadi.Navoiy ularni haq yo'lga hidoyat qilishda shaxsiy ibrat qilib ko'rsatib, riyokorlik

poraxo'rlik,tamagirlik,g'arazgo'ylik kabi illatlardan pok,ilm,ma'rifat va go'zal insoniy fazilatlar bilan ziynatlangan bo'lishlari kerak deb aytib o'tadi.

Mudarrislar,muallimlar va tabiblar,mutriblar,kotiblar va qissaxonlar ta'rifiga bag'ishlangan boblarda ta'lim-tarbiya,jamiyatga foyda keltiradigan kasb-kor egalariga o'zining yorqin munosabatini bildirgan.

Islom dinimizda ilm beruvchilar va ilm o'rganuvchilar doimo e'zozlanib keladi."Mahbub ul-qulub" ning "Dabiriston ahli zikridagi" bob - bolalarga boshlang'ich ta'lim beradigan,umrini yosh avlodning tarbiyasi bag'ishlagan murabbiy va muallimlar haqida.Albatta,bizning dastlabki muallimlarimiz Alloh tomonidan bizga elchi qilib yuborilgan - Payg'ambarlarimizdir.

"Mahbub ul-qulub" ning ikkinchi qismi "Hamida af'ol va zamima xisol zikrida" deb nomlanib,o'n bobda Navoiy ijodining o'zak masalalaridan hisoblanmish tavba,zuhd,tavakkul,qanoat,sabr,tavozu' (xokisorlik) va odob,zikr,ishq tushunchalarining irfoniy-axloqiy talqini keltirilgan.Har bir bobda ruhiy tarbiyaning muhim bosqichlari bo'lmish ushbu insoniy fazilatlarining asl mohiyati ochilib,mashhur shayxlar va afsonaviy siymolar nomi bilan bog'liq ibratli hikoyat va rivoyatlar keltirib o'tilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak,tarixda yashab,ijod qilgan deyarli barcha shoir va yozuvchilarning asarlarida Allohga bo'lgan devona ishq,Payg'ambarlar obrazlariga bo'lgan yuksak hurmat va ehtiromni ko'rishimiz mumkin.Ular o'z asarlarida Payg'ambarlar obrazini yaratib,bizga asarni tushunib,uqib,o'zimizga odob-axloqlaridan o'rnak olishimiz uchun qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirishgan.Qaysidir ma'noda,ular yaratgan obrazlar orqali Payg'ambarlarni biz o'z hayotimizga o'rnak sifatida olib,ularning odob-axloqlarini,insoniy fazilatlarini o'zimizga doimiy hamrox qilib olishimiz,bizning bu hayotda erishgan eng katta boyligimiz hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sirojiddinov Sh.,Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik - Toshkent: Tamaddun,2018.
2. Islom ensiklopediyasi.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi - Toshkent:2004.
3. Salohiddin Abdug'affor o'g'li. Rasulullohda go'zal o'rnak bor - Toshkent:2024.
4. Gulfuza Madirimova. "Mahbub ul-qulub" asarida nabiyalar obrazi - mavzusidagi 69 -ilmiy xalqaro konferensiya materiallari.
5. Bobur Bahodir o'g'li Nusratov "G'o'bdintog hikoyalarida" badiiy obrazlar xususiyatlari.